

DIDAKTIK O'YINLARNING O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI**N.X.Hamdamova***Navoiy VPYAMO'MM*

Boshlang'ich sinflarda motivlar hosil qilishda didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir.

O'yin- boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar-o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo'llaniladigan usul. O'yin vositasida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, tur li xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muoma la madaniyati shakllanadi.

O'yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o'quv va meh- nat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi.

Psixologiyada bola psixikasining rivojlanishida o'yinning hal qiluvchi aha-miyatga ega deb qaraladi. Faqat o'yindagina bolada shaxsning hamma tomonlari birlikda va o'zaro ta'sirda shakllanadi. O'yindagina bola psixikasida rivojlanish- ning yuqoriroq stadiyasiga o'tish uchun muhim zamin yaratadi.

Didaktik o'yin o'rganilayotgan voqeа va hodisalarning immitatsion modeli yaratilishi sohasidagi faol faoliyatdir. O'yinning boshqa faoliyat turidan muhim far qi shundaki, uning predmeti inson faoliyatidir. Didaktik o'yinda faoliyatning aso- siy turi hamkorlikdagi o'quv faoliyatidir.

Didaktik o'yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim bel- gilari uning tarkibi qat'iyligidir. Didaktik o'yinlarning tarkibiy komponentlari quyi- dagilar: o'yin mantiqi, o'yinning harakati, o'yin qoidasi.

O'yin mantiqi asosan uning sarlavhasida aks etadi. O'yin harakati jarayonida o'quvchilarning o'z qobiliyatini namoyon qilishiga, o'yin maqsadiga erishish uch- un o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini qo'llashga imkoniyat yaratadi.

O'yin qoidasi o'yin jarayonini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. U o'q-uvchilar xulqini, ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi. Didaktik o'yin-

larda ma'lum bir natijaga erishiladi, uning finali uning tugaganligini bildiradi. O'y-inda ma'lumi bir didaktik maqsad qo'yiladi va bu maqsadga erishilishi o'quvchi- larda ma'naviy va aqliy qoniqish hissini shakllantiradi. Didaktik o'yinlar hamma vaqt o'qituvchi uchun o'quvchilarning bilim o'zlashtirishi yoki o'zlashtirilgan bi- limlarni amaliyotga qo'llash ko'rsatkichi hisoblanadi.

Chex pedagogi Ya.A.Komenskiy o'yinni bola faoliyatining asosiy shakli ekanligini ta'kidlab, aynan o'yin bolaning tabiatи va qiziqishlariga mos kelishini aytgan edi. Olim o'yin bolaning aqliy qobiliyatlarini har tomonlama o'stirishi, uning atrof- tevarak haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi, nutqini o'stirishini ta'kid laydi. Shuningdek, tengdoshlari bilan birgalikda o'yin uni tengdoshlariga yaqinlash tiradi.

Didaktik o'yinlarni uch turga ajratish mumkin: og'zaki, so'zlar yordamida o'ynaladigan o'yinlar, o'yin mashg'ulotlari, mashq (harakatli) o'yinlar.

Didaktik o'yinlar uchun o'yin g'oyasi va o'yin vazifalari muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinning eng muhim elementi uning qoidasi hisoblanadi. Qoidani bajarish jarayonida o'yin mazmuni amalga oshadi. Qoidanining mavjudligi o'yin ta'sirini amalga oshirish va o'yin vazifasini

qo'llashga yordam beradi. Qoidani bajarish jarayonida o'yin mazmunini amalga oshirish dunyoqarashi shakllanib boradi.

Didaktik o'yinda o'quvchi qoidalarga rioxaliga qilishga o'rganadi Chunki qoida- larga rioxaliga qilish o'yin muvaffaqiyatini ta'minlaydi. O'yinda qatnashish jarayonida ijodiy xulqiy sifatlar, tashkilotchilik qobiliyati shakllanadi.

Didaktik o'yinda bola yaxshi xulqiy sifatlarga ega bo'ladi. Didaktik o'yinlar bir necha bosqichlarga bo'linadi. Har bir bosqichda bolaning ma'lum bir imkoniyatlari namoyon bo'ladi. Tarbiyachining bu bosqichlar xarakterini billishi didaktik o'yinlarning samaradorligini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Birinchi bosqichda bolada o'ynash ishtiyoqi paydo bo'ladi va o'yinda faollik ko'rsata boshlaydi. Ana shu bosqichda bolani o'yinga qiziqtirish maqsadida topishmoqlar, tez aytishlar, aytishuvlar yoki suhbatlar tashkil qilish mumkin. Ikkinci bosqichda bola o'yin topshiriqlarini bajarish, qoidaga rioxaliga qilishga o'rganadi va o'yinda qatnashuvga kirishadi. Bu bosqichda bolalarda to'g'riso'zlik, maqsadga erishishga astoydil kirisish, irodaviylik, o'yinda yutqizish atamini ham yenga bilish, o'z muvaffaqiya- tidangina emas, o'rtoqlari muvaffaqiyatidan ham quvonish kabi ijodiy sifatlar shakllanadi. O'yinning uchinchi bosqichida bola o'yin qoidalarni yaxshi biladi. U endi o'yinga ijodiy yondoshadi, o'zi yangiliklar kiritadi, mustaqil ijodiy izlanadi. O'yinda qatnashish jarayonida u tez javob topish, yashirish, izlash, yugurish, tas- virlash va boshqa shu kabi vazifalarni bajaradi

Didaktik o'yinlar o'quvchilarda mustaqil fikrlashni tarbiyalashning eng to'g'ri va samarali metodidir. U ma'lum bir materiallar yoki shart- sharoitlarni ta- lab etmaydi, balki o'qituvchidan o'yinni tashkil etish sohasidagi bilim va mala- kalarni talab etadi. O'yinning ma'lumi bir tizim va metodika asosida tashkil eti- lishigina o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini tarbiyalashda muhim o'rinni tutadi.

O'quvchining bilish faoliyatini faollashtirmsandan turib uni bilimga qiziq- tirish mumkin emas. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'quvchini bilimga doimiy qiziqtirish, uning o'qish motivini rivojlantirish tarbiyalovchi ta'limning eng muhim vositasidir. Shunday qilib, bilishga qiziqish o'quvchi shaxsidagi bor imko- niyatlarining ro'yobga chiqishiga ham ko'maklashadi.

Bilishga qiziqish shaxsning boshqa sifatlari kabi o'qish- o'rganish jarayo- nida shakllanadi va rivojlanadi.

O'quvchilarning bilishga qiziquivi ikki asosiy yo'l bilan tashkil etiladi. Birin- chisi, o'quv materialining o'zi o'quvchilarda bilimga qiziqishni paydo qiladi. Chun ki o'rganilmagan yangi narsa insonlar tomonidan qiziqish bilan o'rganiladi. Ikkinci chi tomondan o'quvchilarning bilish faoliyatini qiziqarli tashkil etish yo'li bilan bilimga qiziqtirish mumkin.

Hamma o'quv materiallari ham o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lavermaydi. Bunday hollarda bolalarni ta'lim jarayoniga qiziqishini oshirishning birdan bir yo'li didaktik o'yinlardan foydalanish va ularni tashkil etishdir. O'quvchilarda o'qishga ishtiyoqni oshirish uchun ularni ta'limga qiziqtirish lozim.

Quyida shunday o'yin turlari bilan tanishasiz:

"Aql charxi" didaktik o'yini vositasida o'quvchilar mustaqil tafakkur yu- ritishga o'rganadilar, ularning intellectual qobiliyatlarini rivojlanib, ravon nutqlari shakllanadi. O'yin o'quvchilarni ikki yoki uch o'quvchidan iborat guruhlarga bo'- lish orqali amalga oshiriladi. Guruh tarkibidagi bir o'quvchi mavzuga oid so'zdan birini aytadi, ikkinchi o'quvchi birinchi o'quvchi aytgan so'zni takrorlab, yana bir so'z qo'shadi. Shu tariqa uch o'quvchi tomonidan 3

ta so‘z aytilgach, navbat yana birinchi o‘quvchiga keladi. O‘yin shu tariqa davom etadi.Biror o‘quvchi adashib ketsa yoki aytilgan so‘zni qaytarib aytsa, guruh o‘yindan chiqadi.

“Noto‘g‘ri jumla”

Bu o‘yin suratlar asosida o‘tkaziladi. O‘quvchini suratni tasvirlab berishi asnosida suratlarga tegishli bo‘lmagan jumlalarni topishlari lozim.

O‘quvchilardan bu o‘yin davomida ziyraklik, sinchkovlik, kuzatuvchanlik va diqqat talab qilinadi.Ular suratni sinchkovlik bilan kuzatib turib o‘qituvchining hikoyasini ham diqqat bilan tinglab turadilar. Har bir noto‘g‘ri jumlanı topa bilish ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini va darsga qiziqishini orttiradi.Bu o‘yindan faqat ona tili darslarida emas, darsdan tashqari mashhg‘ulotlarda ham foydalanish mum-kin.

“Topag‘on”

O‘qituvchi biror belgi asosida savol beradi. O‘quvchilar shu belgini o‘ziga jam qilgan predmetlar nomlarini yozadilar, eng ko‘p to‘g‘ri javob topgan o‘quvchilar g‘olib sanaladi.

Bu o‘yinni o‘tkazish o‘quvchilarga so‘z turkumlari haqidagi dastlabki

ma‘lumotlar berish jarayonini yengillashtiradi. Bundan tashqari ularning so‘z boyligi ortib, ularda hozirjavoblik, ziyraklik, ijodkorlik kabi sifatlar shakllanadi.

“Ko‘rganini eslab qolish” didaktik o‘yinida qo‘sib sanash yo‘li bilan geometrik shakllar miqdori bilan bog‘liq ravishda son qatorini tuzish topshirig‘idan foydalanish mumkin.Bunda o‘quvchilarga o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatilgan namunaga 3-4 daqiqa davomida diqqat bilan qarab olib, geometric shakllarning soni va qanday joylashganini aniqlash hamda ularni o‘zining daftariga to‘g‘ri yozish topshiriladi. Buning uchun 6 ta qizil doiracha va 6 ta ko‘k kvadrat solingan individial convert o‘rtasidan qizil chiziq tortilgan qalin oq qog‘oz o‘qituvchiga namuna sifatida ko‘rsatish uchun geometric shakllar yopishtirilgan namunalar kerak bo‘ladi.

“Tez javob ber” o‘yini. O‘qituvchi qator oralab yurib, o‘quvchilardan birini turg‘izadi va biror- bir nomni aytadi. O‘quvchi shu turga kiruvchi javob topib ay- tishi lozim. Javob uchgacha sanalguncha aytilishi kerak. Javob bera olmagan o‘quvchi o‘yindan chiqadi. Masalan, 2- sinfda “Jismmi yoki modda?” bo‘yicha bu o‘yinni quyidagicha qo’llash mumkin. O‘qituvchi biror o‘quvchining oldiga borib, “temir” deydi, shu o‘quvchi “modda” deb javob berishi kerak. Agar boshqa o‘quvchining oldiga borib, “daftar” desa, o‘quvchi “jism” deb javob berishi lozim.Bunday didaktik o‘yinlarni “Atrofimizdag‘ olam” va “Tabiatshunoslik” darslarida qo’llash natijasida o‘quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash malakalari rivojlanadi, ular atrof- muhitni sinchkovlik bilan kuzatishga o‘rganadilar, atrofdagi sodir bo‘la - digan hodisalarga qiziqishlari ortadi.

Xulosa

O‘yin o‘quvchi faoliyatining asosiy shaklidir. O‘yin - muhim aqliy faoliyat turlaridan biri bo‘lib, unda o‘quvchi qobiliyatining hamma turlari rivojlanadi, uning atrof olam haqidagi tasavvurlari kengayadi, nutq boyligi oshadi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchining turli-tuman qobiliyatları, idroki, nutq va diqqatining rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Boshlang'ich ta'limdi zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O'quv qo'llanma/T.G'afforova.- T.: Tafakkur, 2011.-160 b.

2.M.Inoyatova, A.Nosirov, M.Divanova,G.Boymurodova, A.Baxromov, M.Rasu-lova F.Abduquodusova Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy pedago- gik va axborot texnologiyalarni qo'llash.Toshkent- 2014